

IQTISODIYOTDA DEMOGRAFIK TENDENSIYALAR

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti

Iqtisodiyot fakulteti I 92/21 - guruh

Talabasi To'xtasinov Javohir Muzaffar o'g'li

Annotatsiya: *Aholi o'sishi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik munozarali hisoblanadi. Ushbu tezizda biz aholi o'sishi, aholi jon boshiga ishlab chiqarish hajmining o'sishi va umumiy iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashtiramiz va tarixiy ma'lumotlarni ham ko'rib o'tamiz.*

Kalit so'zlar: *Olimlarning qarashlari, aholining demografik ko'rsatkichlari, iqtisodiy o'sish, ishchi kuchi, aholi migratsiyasi*

Abstract: *The relationship between population growth and economic growth is controversial. In this thesis, we clarify the relationship between population growth, per capita output growth, and overall economic growth, and review historical data.*

Key words: *Malthus theory, population demographics, economic growth, labor force, population migration, Malthus theory*

Аннотация : *Связь между ростом населения и экономическим ростом является спорной. В этой диссертации мы проясняем взаимосвязь между ростом населения, ростом производства на душу населения и общим экономическим ростом, а также рассматриваем исторические данные.*

Ключевые слова: *теория Мальтуса, демография населения, экономический рост, рабочая сила, миграция населения, теория Мальтуса.*

Kirish.

XXI asrda mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi va barqaror taraqqiyotga erishishida demografik omillar juda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Har bir davlatning aholisi uning iqtisodiy faoliyati va ijtimoiy infratuzilmasi uchun asosiy resurs hisoblanadi. Aholi soni, yosh tarkibi,

migratsiya va bandlik kabi demografik ko'rsatkichlar iqtisodiy taraqqiyotning muvaffaqiyati uchun muhim omillar sifatida ko'rib chiqiladi. Aholi sonining ko'payishi, umumiy ishlab chiqarishni oshirishga, iste'mol talabini kuchaytirishga va bozorda yangi imkoniyatlar yaratishga olib keladi. Biroq, aholi sonining ortishi bilan birga, resurslar yetishmovchiligi yoki atrof-muhitga salbiy oqibatlar ham yuzaga keladi. Shu sababli, aholi o'sishining iqtisodiy o'sish bilan muvozanatli bo'lishi muhim hisoblanadi. Biz bilamizki bugungi kunda aholining o'sish tendensiyasi pasayib bormoqda va bu ko'pincha rivojlangan mamlakatlarda kuzatilmoqda. Bu kabi davlatlar iqtisodiyotini barqarorlashuvini davom ettirish maqsadida migrantlarni o'ziga jalb etmoqda. Aholi – bu avvalo iste'molchilardir. Aholi soni qanchalik ortib borsa, oziq-ovqat va yashashga sharoitiga bo'lgan talab ham shuncha ortadi. Demak, o'sib borayotgan aholini yuqori turmush darajasi bilan ta'minlash uchun ishlab chiqarish ham shu tezlikda oshishi kerak.

Shuningdek, Jahon bankining manbalariga ko'ra, zamonaviy iqtisodiyotda inson kapitali umumiy boylikning 64 % ni tashkil etsa, qolgan 20% tabiiy kapital va 16% jismoniy kapitalga to'g'ri kelar ekan.

Olimlarning qarashlari

Maltus nazariyasi — iqtisodchi va statistik Thomas Maltus tomonidan ishlab chiqilgan va 1798 yilda uning “An Essay on the Principle of Population” (Aholi soni printsipi haqidagi risola) asarida taqdim etilgan nazariya bo'lib, bu nazariya aholining o'sishi va uning resurslar bilan ta'minlanishi o'rtasidagi bog'lanishni tushuntiradi. Unga ko'ra aholining o'sishi geometrik va oziq ovqat ishlab chiqarish esa bu arifmetik progressiyalarda davom etishini va agar chora-tadbirlar qo'llanilmasa, bu kelajakda falokat keltirishi mumkinligini aytib o'tgan. Maltusizm tarafdorlarining qarashlariga ko'ra, aholining tez o'sishi iqtisodiy ahvolning yomonlashuviga va ekologik inqirozlarga olib kelgan mamlakatlarni ham misol sifatida keltirib, ular global falokatlarning oldini olish uchun aholi sonini nazorat qilish va resurslarni oqilona boshqarish zarurligini ta'kidlagan.

Bugungi kunda dunyoda Maltus nazariyasi demografiya, ekologiya va iqtisodiyot haqidagi munozaralarga ta'sir qilishda davom etmoqda. Bu iqlim


o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va boyliklarning notekis taqsimlanishi kabi global muammolar nuqtai nazaridan ayniqsa dolzarb bo'lib qolmoqda.

Boris Urlanis — sovet davrining mashhur demograf olimi bo'lib, u aholi va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganishga katta hissa qo'shgan. U, ayniqsa, demografik o'sishning iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarga ta'siri bo'yicha muhim tadqiqotlar olib borgan. Urlanisning aytgan so'zlari, ya'ni “aholi sonining 1 foizga o'sishi mamlakat byudjetidagi xarajatlarni 3 foizgacha oshiradi”, ya'ni aholining ko'payishi ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya xarajatlarini o'z-o'zidan ko'paytiradi.


David Bloom va David Canning – "demografik dividend" tushunchasini ishlab chiqqan olimlardandir. Ular demografik dividend orqali mehnat yoshidagi aholining o'sishi iqtisodiy o'sishsur'atlarini oshirish imkoniyatini yaratishini ta'kidlaydi. Ularning tadqiqotlari rivojlanayotgan davlatlarda demografik dividenddan foydalanish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan. Demografik dividend — bu aholi tarkibidagi yoshlar orasidagi ko'payish va ishlov beradigan yosh avlodning ko'payishi natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy o'sishning bir turi. Ular yoshlar nisbati ko'payganda, mehnat bozorida ishtirok etadigan odamlar sonining oshishi va shu bilan birga ishlab chiqarish va iste'mol imkoniyatlari ortishini ta'kidlashgan. Demografik dividend, ayniqsa, ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sishning tezlashishiga yordam beradi, lekin bu faqat to'g'ri siyosat va ta'lim tizimi orqali amalga oshiriladi.

Aholining demografik ko'rsatkichlari

Demografik tendensiya bu ikki turga ajraladi: eksponensial o'sish, dastlab aholi sekin o'sayotganga o'xshayda, ammo vaqt o'gani sayin bu tez suratlarda ketadi va eksponensial tushish ham mavjud bo'lib, bu esa dastlab aholi kamayishi bilinmaydi va sekin asta bu ham tez suratda ketadi. Moody's Investors Service ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda Xitoyda mehnat unumdorligi bilan bog'liq jiddiy muammolar yuzaga kelgan. Tug'ilishning qisqarishi va umr ko'rish davomiyligi oshishi sababli Xitoy aholisi qarib bormoqda va demografik vaziyat yomonlashmoqda.



Xitoyning aholisining kamayishining asosiy sabablaridan biri 1979 yilda joriy etilgan va 2015 yilgacha qat'iy amalga oshirilgan bitta bolali siyosatidir. Dastlab aholi o'sishini boshqarish maqsadida qabul qilingan bu siyosat tug'ilishlar sonining kamayishiga va jinsiy nisbatlarning sezilarli darajada nomutanosib bo'lishiga olib keldi. Boshqa bir omil esa mamlakatning tez qarib borayotgan aholisidir. Xitoyda umr ko'rish davomiyligi so'nggi o'n yilliklarda sezilarli darajada oshdi, natijada qariyalar soni ortdi. Ushbu trend davom etishi kutilmoqda va 65 yoshdan oshgan aholi soni 2050 yilga kelib ikki barobar ko'payishi prognoz qilinmoqda. Bu esa xitoy davlatini iqtisodiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi va Xitoy hukumati bu muammoni hal qilish uchun aholini ko'proq tug'ishga rag'batlantiradigan siyosatlarni joriy etmoqda. AQSH davlatini misol tariqasida ko'rib o'tidigan bo'lsak, mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va demografik rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Immigratsiya AQShning kuchli iqtisodiyoti, madaniy diversifikatsiyasi va global mavqeyini saqlab qolish uchun zarur bo'lgan omil hisoblanadi. AQShda aholi qarib borayotganligi sababli, immigratsiya yosh ishchi kuchini ta'minlashda va iqtisodiy o'sishni davom ettirishda muhim ahamiyatga ega. Immigratsiya yordamida aholi yosh tarkibini muvozanatlash va iqtisodiy faol yoshlar sonini oshirish mumkin.



Tug'ilish darajasi faqat Xitoy va AQSH da emas, deyarli dunyoning barcha mamlakatlarida qisqarib bormoqda. Bu degani aholi soni o'sish sur'ati qisqarib, aholi soni ham uzoq muddatda qisqaradi degani. Fan ham, tajriba ham uning yechimini aniq bilmaydi. Ko'proq farzand ko'rish uchun davlat tomonidan pul berish, kamroq ish

soatlari, baland maosh, sog'lom ishchilar va boshqalarning trend uchun foydasini deyarli ko'rmadik. Bir yechim, bu immigrantlar evaziga aholi sonini ushlab turish. Ko'paytirish bu o'ta optimizm bo'lar edi. Masalan, AQShga hozirgi darajadagi immigratsiya saqlanib qolsa 2100 yilga kelib aholi soni atiga 10%ga oshar ekan. Agar butunlay immigratsiya to'xtasa 2100 yilgacha aholi soni 100 millionga kamayar ekan. AQShning ham, boshqa mamlakatlarning ham uzoq muddatda o'sish faktori bu immigrantlar.

Xulosa

Hozirgi kunda dunyo bo'ylab ko'plab mamlakatlarda aholi o'sishi pasayib borayotgan bir vaqtda, boshqa davlatlarda migratsiya va yosh avlodning ko'payishi orqali iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlashga harakat qilinmoqda. Xitoy kabi mamlakatlarda tug'ilishning pasayishi va qarish tendensiyasi iqtisodiy barqarorlikka tahdid solmoqda, bu esa aholini ko'proq tug'ishga rag'batlantiruvchi siyosatlar va migratsiya strategiyalarini talab qiladi. Shu bilan birga, rivojlangan mamlakatlarda immigratsiya orqali ishchi kuchi va yosh avlodni ta'minlash iqtisodiy o'sishni davom ettirishga yordam beradi. Demografik dividend, ya'ni mehnat yoshidagi aholining o'sishi orqali iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish imkoniyati, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muhim omil bo'lishi mumkin. Biroq, bu faqat to'g'ri siyosat va ta'lim tizimi orqali amalga oshiriladi. Demografik o'zgarishlarning ijobiy ta'sirini to'liq ro'yobga

chiqarish uchun davlatlar o'z siyosatlarini yangilash, ta'lim va mehnat bozori siyosatlarini moslashtirish va ekologik muammolarni hal qilishga e'tibor qaratishlari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://www.brookings.edu/articles/new-census-projections-show-immigration-is-essential-to-the-growth-and-vitality-of-a-more-diverse-us-population/>
2. <https://www.aeaweb.org/articles?id=10.1257%2Faer.20201605&s=08/1000%0A>
3. <https://www.emerald.com/insight/content/doi/10.1108/ijse-08-2019-0496/full/html>
4. <https://journals.sagepub.com/doi/full/10.1177/2158244017736094>